

О’TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” ASARIDA QO’LLANILGAN KENGAYGAN BIRIKMALAR TAHLILI

Jo’rayeva Mehriniso

TerDU, o’zbek filologiyasi fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O’tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” asarida tarkibida kelgan kengaygan birikmalar yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan bo’lib, tobe va hokim a’zolarining kengaytiruvchi va kengayuvchanlik xususiyatlari misollar asosida dalillangan.

KALIT SO’ZLAR: “Bahor qaytmaydi”, tobe a’zo, hokim a’zo, kengayuvchanlik va kengaytiruvchanlik xususiyati, kengaygan birikma, ko’rsatkichlar munosabati, nutqiy birikma.

So’z birikmasida ma’nosi muayyanlashtirilayotgan so’z hokim va uning ma’nosini muayyanlashtiruvchi so’z tobe a’zo deyiladi. Masalan: *qizil olma* birikmasida *qizil* so’zi tobe va *olma* so’zi hokim a’zo sanaladi. Shuningdek, bir so’z bir necha so’zni o’ziga tobe a’zo sifatida biriktirib kelishi ham mumkin. Lekin so’z birikmasida bir so’z faqat bir a’zogagina tobe a’zo sifatida bog’lanishi mumkin, xolos. Masalan: *katta, baland binolar* birikmasida *binolar* so’zi o’zidan oldin kelgan ikkita so’zga hokim bo’lib, bog’lanib kelayotgan ikkala tobe a’zo ushbu hokim so’zning ma’nosini muayyanlashtirmoqda. Yuqoridagi birikma tarkibida kelayotgan *katta* va *baland* so’zlari faqatgina birgina a’zoga tobe, ya’ni bu so’z *binolar* so’zi sanaladi. Shu tariqa, so’z birikmalari tarkibida hokim mavqeda yuzaga chiqayotgan leksema o’zining hokim, tobe vazifasida yuzaga chiqayotgan leksema esa o’zining tobe valentligini namoyon qiladi. Shuningdek, hokim va tobe a’zo vazifalari, grammatik shakli va sintaktik o’rni asosida belgilanadi[2,330;4,11]. Tobe a’zo oldin kelib, keyingisining ma’nosini izohlashga xoslangan bo’ladi va bunga mos bo’lgan grammatik ko’rsatkich bilan shakllanadi, ma’lum sintaktik o’ringa ega bo’ladi. O’zbek nutqida, odatda, hokim so’z keyin tobe so’z oldin keladi. Nutqiy inversiya(hokim va tobe so’z tartibining buzilishi) asosidagi so’z birikmalarigina bundan mustasno. Masalan: *yodladim she’rni, tozaladim hovlini* kabi.

Hokim so’z kengayuvchi, tobe so’z kengaytiruvchi so’z deb ham yuritiladi. Kengayuvchi va kengaytiruvchi atamaları nisbiy mohiyatga ega bo’lib, shaklga nisbatan aytilgandagina tog’ri bo’ladi[3,16]. Masalan: *xonani yig’ishtirmoq* birikmasida (*yig’ishtirmoq*) so’ziga yana so’z birikadi va so’zlar soni ikkita bo’lib, shakliy “yoyilish”, ya’ni kengayish yuz beradi. Bu kabi shakliy kengayish esa ma’noviy torayishni vujudga keltiradi. Bunda so’z birikmasi a’zolari o’rtasida shakl va mazmun dialektikasi yanada yaqqolroq namoyon bo’ladi. Chunki yig’ishtirmoq leksemasining ma’nosi keng, u yig’ishtirsa bo’ladigan barcha narsalar ustida yuz beradigan harakatlarni ifodalab keladi.

Хонани yig'ishtirmoq birikmasida esa yig'ishtiriladigan barcha narsalardan asosan xonani yig'ishtirmoq mohiyatli toraygan ma'nosi qoladi. Shakliy jihatdan kengayib, ma'noviy jihatdan torayib ketadi. Bundan tashqari, kengayuvchi atamasini faqat hokim so'zga, kengaytiruvchi atamasini faqat tobe so'zga xos qilib qo'yish ham biryoqlamalik. Zero, *kitobni o'qimoq* birikmasida kitob leksemasi tobe, o'qi leksemasi hokim valentligini namoyon qilganligi kabi unda *o'qimoq* so'zi *kitobni* so'z shakli uchun ma'noviy toraytiruvchi va shakliy kengaytiruvchi vazifasini namoyon qiladi. *Kitobni* so'z shakli o'timli harakatni ifodalovchi cheksiz leksema bilan bog'lanish imkoniyatiga ega. O'qimoq so'zshakli bilan birikish asosida unda ma'noviy torayish, shakliy kengayish yuz beradi. O'. Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asarida qo'llanilgan so'z birikmalarining tobe-hokim, kengayuvchi va kengaytiruvchanlik vazifasiga ko'ra tahlili quyidagicha:

1. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamga xush yoqadigan bo'lib qoldi.(7-b) kengaygan birikma: iliq, tansiq nurlari; tobe-kengaytiruvchi so'z – iliq, tansiq; hokim-kengayuvchi so'z – nurlari.
2. Anvar Muqaddamni chetlab o'tdida, tik so'qmoqdan pastga yugurib tushib, qirg'oqdagi tolning g'adir-budir, yog'on gavdasini qo'li bilan ushlab qoldi.(15-b) kengaygan birikma: g'adir-budur, yog'on gavdasini; tobe-kengaytiruvchi so'z – g'adir-budur, yog'on; hokim-kengayuvchi so'z – gavdasini.
3. Xayolida yana o'sha yupanchli, tiniq fikr uyg'ondi: "Yo'q, o'zimni Anvar akam yaxshi!".(25-b) kengaygan birikma: yupanchli, tiniq fikr; tobe-kengaytiruvchi so'z – yupanchli, tiniq; hokim-kengayuvchi so'z – fikr.
4. Muqaddam o'sha tanish, pastak eshik tagiga yetganidan keyingina tez yurganini yuragi allaqanday qarama-qarshi tuyg'ularga to'lib-toshganini payqab qoldi.(28-b) kengaygan birikma: tanish, pastak eshik; tobe-kengaytiruvchi so'z – tanish, pastak; hokim-kengayuvchi so'z – eshik.
5. Muqaddam sarg'ish jingalak sochli, serharakat, xushchaqchaq yigitni esladi.(35-b) kengaygan birikma: serharakat, xushchaqchaq yigit; tobe-kengaytiruvchi so'z – serharakat, xushchaqchaq; hokim-kengayuvchi so'z – yigit.
6. Anvar uni militsioner turgan vestibuldan olib o'tib, keng, yorug' yo'lakka boshlab kirdi.(38-b) kengaygan birikma: keng, yorug' yo'lak; tobe-kengaytiruvchi so'z – keng, yorug'; hokim-kengayuvchi so'z – yo'lak.
7. Yong'oqzor bog' ustida har sahar uning yangroq, dilbar ovozi parvoz etar, u qo'shiq boshlanganida tabiatning o'zi ham tan berib quloq solganday bo'lar, so'qmoqlar ham, anhor ham bir nafas sukut saqlab turardi.(40-b) kengaygan birikma: yangroq, dilbar ovozi; tobe-kengaytiruvchi so'z – yangroq, dilbar; hokim-kengayuvchi so'z – ovozi.
8. Kattakon, rangli afishada bugun konsert beradigan artistlarning nomi yozilgan edi.(60-b) kengaygan birikma: kattakon, rangli afisha; tobe-kengaytiruvchi so'z – kattakon, rangli; hokim-kengayuvchi so'z – afisha.

9. Iliq, aziz xotiralarning quyuni to'satdan yopirilib keldi-da, sekingina tosh ustiga o'tirdi.(113-b) kengaygan birikma: iliq, aziz xotiralar; tobe-kengaytiruvchi so'z – iliq, aziz; hokim-kengayuvchi so'z – xotiralar.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, badiiy matn tarkibidagi gaplarni o'zaro muvofiqligini, ham ma'noviy jihatdan, ham shakliy jihatdan ta'minlab turuvchi asosiy birliklar so'z birikmalar sanaladi. Ular gaplar tarkibidagi so'zlarni o'zaro bog'lab turuvchi asosiy va birdan bir vositalar hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy matnlar tarkibida ko'p qo'llaniluvchi kengaygan birikmalar matnning ma'noviy o'ziga xosligini yuzaga keltirib, kitobxonni o'ziga jalb qilishi bilan ham nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, bunda ijodkor ochib bermoqchi bo'lgan ma'no-mazmun ham kengaygan birikmalar vositasida to'laligicha namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Hoshimov. Bahor qaytmaydi(qissa). – T: “Nurli dunyo” nashriyot uyi, 2022. - 160 b.
2. R. Sayfullayeva., B. Mengliyev., L. Raupova., M. Qurbonova., M. Abuzalov., D. Yo'ldosheva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi”, 2020.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II jild. Sintaksis. O'zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. – T, 1996.
4. M. Sharipov. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalasi. – T.: O'zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1978.
5. Jo'rayeva, M. (2023). MATN VA UNING ALOHIDA TA'RIFI MASALASI. *Академические исследования в современной науке*, 2(4), 182-186.
6. Jo'rayeva, M. (2023). TILSHUNOSLIKDA MATN MUAMMOSI VA UNING O'RGANILISHI. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 58-61.